

Uralova Oysuluv Poyan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,

filologiya fanlari doktori (DSc)

E-mail: oysuluv.uralova@mail.ru

UDK: 81.119 (97.115)

ZOONIM KOMPONENTLI O‘ZBEK VA INGLIZ PAREMIYALARIDA GENDER VA OILAGA OID MUHIM MA’LUMOTLARNING AKS ETISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi zoonim komponentli paremiya (maqol va matal)larda gender va oilaga oid ijtimoiy-madaniy ma’lumotlarning ifodalanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda zoonimlar orqali erkak va ayol obrazlarining milliy tafakkurdagi o‘rni, ularning oilaviy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy rollarni aks ettirishdagi funksiyasi ochib beriladi. Ingliz va o‘zbek paremiologik birliklari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanib, ularning lingvokulturologik mazmuni qiyosiy tahlil asosida izohlanadi. Maqolada zoonim komponentlarning semantik yuklamasi, metaforik va assotsiativ ma’nolari orqali xalq dunyoqarashi, gender stereotiplari hamda oilaviy qadriyatlar tildagi in’ikos sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Zoonim, paremiya, maqol, gender, oila, lingvokulturologiya, semantika, ingliz tili, o‘zbek tili, zookomponent, xalq tafakkuri, stereotip.

Уралова Ойсулүв Поян кизи

Доцент Термезского университета экономики и сервиса,

Доктор филологических наук (DSc)

E-mail: oysuluv.uralova@mail.ru

ОТРАЖЕНИЕ ВАЖНОЙ ИНФОРМАЦИИ О ГЕНДЕРЕ И СЕМЬЕ В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПАРЕМИЯХ С КОМПОНЕНТОМ ЗООНИМ

Аннотация. В данной статье анализируется отражение социокультурной информации, связанной с гендером и семьей, в англоязычных и узбекских паремиологических единицах (пословицах и поговорках), содержащих зоонимические компоненты. Исследование

выявляет роль мужских и женских образов, представленных зоонимами, в национальной картины мира, а также их функцию в выражении семейных отношений, моральных ценностей и социальных ролей. Определяются сходства и различия между английскими и узбекскими паремиологическими единицами, а их лингвокультурные значения интерпретируются посредством сравнительного анализа. В статье подчеркивается, как семантическая нагрузка, метафорические и ассоциативные значения зоонимических компонентов отражают мировоззрение народа, гендерные стереотипы и семейные ценности в языке.

Ключевые слова: зооним, поговорка, пословица, гендер, семья, лингвокультурология, семантика, английский, узбекский, зоокомпонент, национальная картина мира, стереотип.

Uralova Oysuluv Poyan qizi

Associate Professor, Termez University of Economics and Service,

Doctor of Philological Sciences (DSc)

E-mail: oysuluv.uralova@mail.ru

REFLECTION OF IMPORTANT INFORMATION ON GENDER AND FAMILY IN UZBEK AND ENGLISH PAREMIAS WITH ZOONYM COMPONENT

Abstract. This article analyzes the reflection of socio-cultural information related to gender and family in English and Uzbek paremiological units (proverbs and sayings) containing zoonym components. The study reveals the role of male and female images represented by zoonyms in national worldview, as well as their function in expressing family relations, moral values, and social roles. Similarities and differences between English and Uzbek paremiological units are identified, and their linguocultural meanings are interpreted through comparative analysis. The article highlights how the semantic load, metaphorical, and associative meanings of zoonym components reflect the worldview of the people, gender stereotypes, and family values within the language.

Key words: zoonym, paremia, proverb, gender, family, linguoculturology, semantics, English, Uzbek, zoocomponent, national worldview, stereotype.

Kirish.

Dunyo xalqlarining ko‘plab paremalarida genderga xos munosabatlar aks etadi. Gender komponentini o‘z ichiga olgan maqol va maqollar ma’lum bir madaniyatda erkaklar va ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularga qo‘yiladigan talablar, shuningdek, erkaklar va ayollarning xarakteri va xulq-atvorining xususiyatlari haqida shakllangan g‘oyalarni aks ettiradi. Hayvonlar obrazlari nafaqat inson xarakterini aks ettiradi, shuningdek, ijtimoiy tuzilish, turmush tarzi, erkaklarning uyda va davlatdagi roli, biologik jinsni bildiruvchi tayanch zooleksemalarning maqollardagi vazifasini ham ifodalaydi.

Maqollarning lingvomadaniy tahlili tashqi omillar – mamlakat tarixi, madaniyati, hayoti – bilan uzviy bog‘liqdir. Maqollarni lingvomamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish ba’zi holatlarda milliy-madaniy ma’noga ega maqollarning qo‘shimcha semantik nozikliklarini aniqlashga yordam beradi. Turli xalqlarning maqollarini taqqoslash bu xalqlarda qanchalik umumiyliklar bor ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida ularni yaxshiroq tushunish va yaqinlashishga yordam beradi” [7].

Adabiyotlar tahlili.

Qator olimlar maqollarni lingvomamlakatshunoslik va tipologik nuqtayi nazaridan tadqiq qilishgan. S.N.Averina dissertatsiyasida F.Gumboldt va A.A. Potebnya tomonidan “ular (paremalar)da ma’lum bir etnik guruh dunyoqarashining o‘ziga xosligi yoki boshqacha qilib aytganda, “xalq ruhi” namoyon bo‘ladi”, – degan fikrini keltirgan. Tadqiqotchi “folklorga, shu jumladan maqol va matallarga qiziqish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor xususiyatlaridan biri bo‘lib, unda tilda “inson omili”ga tub burilish mavjud” ekanligini ta’kidlaydi [3]. Maqol va matallarni Y.M. Vereshagin va V.G.Kostomarovlar folklorga oid aforizmlar deb atashadi. Ularning fikricha, lingvistik aforizmlarning mamlakat (hudud)ga oid qiymati ikki shaklda ifodalanadi. Birinchidan, aforizmlar milliy madaniyatni

ravshan, kompleks aks ettiradi, ularning barcha elementlari ajralmas belgilar sifatida birlashtiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Zoonim komponentli o'zbek va ingliz paremiyalarida gender va oilaga oid ma'lumotlar tahliliga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning chog'ishtirma tahlil, analiz va sintez kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Gender tadqiqotlari "jinslar falsafasi" deb ataladi, chunki ular jinslar o'rtasidagi munosabatlar mexanizmlarini, ularning o'zaro ta'sirini ochib berishi, jinslarning jamiyatdagi ijtimoiy rollarini ko'rsatishi, insoniyatning tarixiy rivojlanishida ular orasidagi muhim rol o'ynagan farqlarni aniqlashi kerak.

Hayvon nomlari insonlarni tavsiflash uchun muhim manba hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, *buqa, novvos, ho'kiz, sigir, tana, g'unajin // ox, bull, cow, xo'roz, tovuq // cock, hen, g'oz // goose, gander, ot, ayg'ir, biya, baytal / horse, stallion, mare, taka, echki // goat, qo'y, sovliq, qo'chqor / sheep, ram* komponentli maqollar tahliliga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Hayvonlar obrazlari nafaqat inson xarakterini aks ettiradi, shuningdek, ijtimoiy tuzilish, turmush tarzi, erkak va ayollarning har xil roli, biologik jinsni bildiruvchi tayanch zooleksemalarning maqollardagi vazifasini ham ifodalaydi. Paremalarda komponent sifatida ishtirok etadigan hayvonlar juftliklari erkaklar va ayollarning dunyodagi, hayotdagi, oiladagi har xil mavqeyini yaqqol namoyish etadi. Masalan, *buqa, novvos, ho'kiz, sigir, tana, g'unajin // ox, bull, cow* juftliklariga e'tibor beraylik. Buqa, novvos, ho'kiz erkak qoramollardir. Ma'no nuqtayi nazaridan ular bir-biridan farqlanadi. Buqa – bichilmagan erkak qoramol. Novvos – ikki-uch yashar buqa. Ho'kiz – ikki yoshdan oshib, qo'shga yaraydigan holga kelgan bichilgan erkak qoramol [1].

O'zbek mentalitetida "ho'kiz" komponentli maqollarda insonning ijobiy va salbiy xususiyatlari kuzatiladi.

Ijobiy xususiyatlar: mehnatkashlik "Sa'va ishi – sayramoq, ho'kiz ishi – xirmon yanchmoq"; sodiq yordamchi "Og'ilda ho'kizim yo'q, elimda obro'yim

yo‘q”; moddiy foyda “*Arava sinsa – o‘tin, ho‘kiz o‘lsa – go‘sh*”; insonning kundalik hayotiy tajribasi “*Ho‘kizning shoxiga ursang, tuyog‘i zirqirar*”.

Salbiy xususiyatlar: dangasalik “*Yotgan ho‘kiz och qolar*”; yomonlik “*Yomon ho‘kiz shamiyon sindirar*”; tarbiyasizlik “*It izzatni bilmas, ho‘kiz – hurmatni*”; qaysarlik “*O‘lar ho‘kiz boltadan qaytmas*”; sansalorchilik “*Yer qattiq bo‘lsa, ho‘kiz ho‘kizdan ko‘rar*; zaiflik “*Ozman ho‘kiz o‘zidan qo‘rqib novvosga ergashar*”. Ushbu maqolda “*ho‘kiz*” va “*novvos*” komponentlari birga qatnashgan; manmanlik “*Yomon buqa o‘z boshiga o‘t yer*” [2].

Sigir – asosiy uy hayvonlaridan biri. O‘zbek xalq maqollarida sigir komponenti ijobiy va salbiy obrazlarni ifodalashi mumkin.

Ijobiy fazilatlar: ro‘zg‘orni har tomonlama ta‘minlashda tinib-tinchimaydigan, mehnatkash, boquvchi ayol “*Sigir – ro‘zg‘orning baqqoli*”; “*Sigir – buloq*”. Salbiy xislatlar: manman ayol “*Sigir o‘zining buzoq bo‘lganini bilmas*”; mahmadona, katta gapiradigan inson “*Qisir sigir ko‘p ma‘raydi*”. *Tana* – bir-ikki yoshli urg‘ochi buzoq. Ikki yoshdan oshgan urg‘ochi buzoq “*g‘unajin*” deb ataladi. “*Tana*” va “*g‘unajin*” xalq maqollarida qiz, juvon obrazlarini ifodalaydi.

Maqollarda qiz va juvonlarga salbiy baho beriladi. “*Tananing turqi tuqqaniga tamg‘a*” maqolida qiz yoki juvonning salbiy xatti-harakatlari ota-onasiga borib taqaladigan iz ekanligi ta‘kidlanmoqda. Bir maqol doirasida qiz-juvon va erkakning xatti-harakatlarini ko‘rish mumkin. “*Tana ko‘zini suzmasa, buqa ipini uzmaydi*”, “*G‘unajin ko‘zini suzmasa, buqacha ipini uzmas*” paremlarida “*tana*”, “*g‘unajin*” va “*buqa*”, “*buqacha*” zoonimlari ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Ushbu maqollar bilan “*parda*” orasida erkaklarni, yigit-u yigitchalarni yo‘ldan uradigan buzuq, suyuqoyoq, g‘ar ayollar va qiz-juvonlarga qochirim qilinadi hamda sodir bo‘lgan noxush, sharmandali, g‘ayriqonuniy voqeaning birlamchi sababchisi – ularning o‘zi ekanligi qayd etiladi [8].

“Ox – a bull (male cow) that has had its reproductive organs removed, used in the past for pulling heavy things on farms, or, more generally, any adult of the cattle family” (Axtalangan, ya’ni jinsiy bezlari olib tashlagan, ilgari fermer

xo‘jaliklarida og‘ir narsalarni olib yurish uchun ishlatilgan ho‘kiz yoki umuman, katta qoramol oilasining har qanday vakili).

“Ox”/buqa, ho‘kiz komponentli maqollarda insonlarning ham ijobiy, ham salbiy xislatlari o‘z ifodasini topgan [3].

Ijobiy fazilatlar: tajribali, dono inson “*An old ox ploughs a straight furrow*”(Qari buqa to‘g‘ri jo‘yak (egat) oladi); kuchli va chidamli odam “*As strong as an ox*” (Ho‘kiz kabi kuchli); muhim narsalarni qadrllovchi shaxs “*Better an egg in peace than an ox in war*” (Urushdagi ho‘kizdan ko‘ra tinchlikdagi tuxum yaxshiroq); o‘tmishdagi xatolardan saboq oluvchi, hushyor kishi “*You cannot flay the same ox twice*” (Siz bir ho‘kizni ikki marta boshqara olmaysiz); ishontirish, tortishuvlar orqali boshqarish yoki ta’sir qiluvchi shaxs “*An ox is taken by the horns, and a man by the tongue*” (Ho‘kizni shoxidan ushlashadi, odamni tilidan).

Salbiy xislatlar: foyda keltiradigan kishiga zarar yetkazuvchi kimsa, “*To gore the ox that treads out the corn*” (Donni oyoq osti qiladigan buqani suzib yuborish uchun); kimdir muammoga duch kelganda, faqat o‘rgatuvchiga aylanuvchi kishi “*When the ox is down, many are the drivers*” (Buqa tushkunlikka tushganda, ko‘pchilik podachiga aylanadi); dangasa, qobiliyatsiz odamni rag‘batlantirishga harakat qiluvchi shaxs “*A lazy ox is little better for the goad*” (Dangasa ho‘kizni qamchilash biroz yaxshiroq); jinoiy harakatlarga moyil fuqaro “*He that will steal an egg will steal an ox*” (Tuxumni o‘g‘iraydigan ho‘kizni ham o‘g‘iraydi); mutlaqo bexabar, ikkita aniq narsani bir-biridan ajrata olmaydigan inson “*Not to know one from the Adam’s off ox*” (Insonni Adamning ajdodidan ajrata olmaslik) [4].

“Bull – a male cow, or the male of particular animals such as the elephant or the whale” Buqa – sigir, fil yoki kit kabi hayvonlarning erkagi.

“Bull”/buqa komponentli iboralarda insonlarning quyidagi salbiy tavsiflarini ko‘rish mumkin: zarar yetkazadigan qo‘pol odam “*Bull in a china shop*” (Chinni do‘konidagi buqa); insonlarning diqqat-e’tiborida yoki voqealar markazida turishni xohlovchi shaxs “*Bull in the ring*” (Ringdagi buqa); ishi o‘ng kelmagan odam “*Bullfrog in a hailstorm*” (Do‘l bo‘ronidagi buqa-qurbaqa).

Cow/sigir komponentli ingliz maqollarida faqat salbiy xislatlar kuzatiladi: ayollardagi ikkiyuzlamachilik “*A bellowing cow soon forgets her calf*” (Bo‘kiruvchi sigir tez orada buzog‘ini unutadi); qizg‘anchilik “*Let him take the cow that stole the calf*” (U buzoqni o‘g‘irlagan, sigirni olsin); ahmoqlik “*The cow knows not what her tail is worth till she has lost it*” (Sigir o‘z dumini yo‘qotmaguncha, dumi qancha turishini bilmaydi); zaiflik “*The cow little gives that hardly lives*” (Sigir zo‘rg‘a yashayotganligi uchun uning imkoniyati kam) [5].

Xo‘roz, tovuq // cock, hen. O‘zbek xalqida, ko‘pgina boshqa etnoslardagi kabi xo‘roz erkaklik timsolida tong va hushyorlik ramzi hisoblanadi va u xalq maqollarida o‘z ifodasini topgan: “*Xo‘roz tongda chaqirar, ig‘vogar zimda baqirar*”, “*Xo‘roz hamma yerda bir xil qichqirar*”. Xo‘rozning mag‘rurligi, jasorati va urushqoqligi haqidagi maqollar bizning materiallarimizda uchramadi.

Xo‘roz va tovuq leksemalari doimiy ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. *Tovuq* ayol ramzida qo‘llaniladi: “*Tovuq ko‘rganin cho‘qar, mulla bilganin o‘qir*”; “*O‘z tovug‘im chaqirsa, qayga qarab qichqiray?*”.

Inglizlar xo‘rozchani “*chanticleer*”, yosh xo‘rozni “*cockerel*”, voyaga yetgan xo‘rozni “*cock*” va “*rooster*” (amerikancha ingliz tilida) deb ataydilar. *Cock* / xo‘roz ustun, muhim, ishonchli odamni tasvirlaydi: “*Cock of the walk*” (Xo‘rozdek yurish). Inglizcha “*chicken*” so‘zi o‘zbek tiliga 1) “*tovuq*”, 2) “*jo‘ja*”, 3) “*tovuq go‘sh*ti” deb tarjima qilinadi. Maqollarda zaif va qo‘rqoq ayolni ta’riflaydi: “*Children and chicken must always be picking*” (Bolalar va tovuq doim tayyor turishi kerak). Inglizlarda “*hen*” so‘zi o‘z ma’nosida “*tovuq*”ni anglatadi, ko‘chma ma’noda “*g‘iybatchi yoki ahmoq ayol*”ni ifodalaydi: “*It is a sad house where the hen crows louder than the cock*” (Bu uy – tovuq xo‘rozdan balandroq qichqiradigan qayg‘uli uy). “*Better an egg today than a hen tomorrow*” (Ertaga tovuqdan ko‘ra bugun tuxum yaxshiroq) ingliz maqoli “*ko‘proq narsaga umid qilgandan ko‘ra, hozirda bor narsaga qanoat qilish kerak*” ma’nosini beradi [6].

Xulosa.

Paremalarda qayd etilgan gender munosabatlari mental jihatdan muhimdir. Zoonim komponentli o‘zbek va ingliz paremiyalarida genderga oid muhim

ma'lumotlar aks etishining tahlili shuni ko'rsatadiki, hayvon nomlari insonlarni tavsiflash uchun muhim lingvistik manba hisoblanadi. Paremalarda komponent sifatida ishtirok etadigan hayvonlar juftliklari erkaklar va ayollarning dunyodagi, hayotdagi, oiladagi har xil mavqeyini yaqqol namoyish etadi.

Adabiyotlar

1. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – 448 b.
2. Uralova O. Ingliz va o'zbek tillarida "Oila" bosh leksemali maqollar semantikasi va sturukturasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand. 2021. – 217 b.
3. Аверина С.Н. Пословично-поговорочные паремии как аргументативные средства языка: Дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар. 2005. – 146 с.
4. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). – Ташкент: Фан, 2006. – 297 с.
5. Бушуй А.М. и др. Библиографический указатель по паремиологии. Паремиология Узбекистана. – Самарканд. 1983. Вып. V. – 73 с.
6. Дубровин М.И. Английские и русские пословицы и поговорки в иллюстрациях – Москва: Просвещение, 2005. – 219 с.
7. Плескачева Я. С. Лингвокультурологические особенности пословиц с зоонимами в английском, немецком и русском языках //Linguamobilis. – 2014. – № 5 (51). – С. 86.
8. Сапарова Н.Б. Лингводидактические основы обучения студентов-казахов номинацентрическим пословицам русского языка: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2001. – 24 с.
9. Сындыбаева Г.Н. Структура и семантика номинацентрических пословиц тождества: Дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 118 с.